

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH USULLARI

Umrilloyeva Gulhayo Shahobiddin qizi

*Shahrisabz davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalishi
talabasi*

Haydarov Shavkat Shamsiddin o'g'li

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot o'tishning asosiy sharti sifatida interfaol usullardan foydalangan holda aqliy faoliyatni rivojlantirish yoritilgan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Chunki, ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi.

Kalit so'zlar : interfaol, interfaollik, interfaol ta'lim interfaol ta'limga xos belgilar, interfaol ta'lim tamoyillari, interfaol ta'lim texnologiyalari (TT), interfaol metodlar, strategiya, grafik organayzer.

Bugungi kunda ta'lim tizimiga, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimiga ham yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar kirib kelmoqda. Bu texnologiyalarning mazmun-mohiyatini, asosiy tamoyillarini, qonuniyatlarini, ulardan samarali foydalanish yo'llarini amaliyotchi tarbiyachi va o'qituvchilarga yetkazib berish pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi bolaning bilish qobiliyatlarini muntazam-rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog'chasi tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemasi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Chunki, ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sistemalashtirishni, bilish jarayonlarini, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda.

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact”(rus tilida “interaktiv”) tarzida ifodalaniib, lug'aviy nuqtai nazardan “inter” – o'zaro, “act” – harakat qilmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

Interfaol ta'lim – talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim. Interfaollik talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklari. Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi. Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi. Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi:

1. O'qituvchi-talaba
2. An'anaviy ta'limdagi suhbatdagi ishtirokchilar.
3. O'qituvchi-talabalar guruhi (jamoasi)

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash uchun interfaol texnologiyalarni joriy etish asta-sekin amalga oshiriladigan jarayon, bu, albatta, maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bugun yurtimizdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida bir necha interfaol texnologik mashg'ulotlardan foydalaniladi. Misol uchun: "Kichik guruhlarda ishlash" ushbu ish texnologiyasining qo'llanilishi barcha bolalar asosida ishlash imkonini beradi. Bolalar o'z mustaqil ishlarini, nafaqat o'zining balki o'rtog'ining ishini baholashni, o'zaro aloqa qilish, bir-birlariga yordam berishni o'rganadilar. "Zanjir" Ushbu texnologiyaning asosi bitta vazifaga har bir ishtirokchining izchil yechimi qidirishi hisoblanadi. Umumiy maqsadning mavjudligi, va o'zaro bir-birlariga yordam ko'rsatish muhitini bir-birlari bilan qamrab olishga, vazifani hal qilish imkoniyatlarini taqdim etadi, bolalarda jamoada ishlash imkoniyatini shakllantiradi. "Bilim daraxti" - bu bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi, muzokaralar olib boorish va vazifalarni hal qilishda mas'uliyat his qilish qobiliyatini shakllantiradi. Interfaol mashg'ulotlar faol o'quv usulining navlaridan biridir. Interfaol o'quv o'zaro ta'siri nafaqat tarbiyachi va maktabgacha yoshdgi bolajonlar o'rtasida amalga oshiriladi, bu holda barcha ko'plab tinglovchilar birgalikda ishlaydi (yoki guruhlarda ishlaydilar). Interfaol o'rganish usullari har doim o'zaro ta'sir, hamkorlik, qidirish, muloqot, odamlar yoki inson va axborot muhiti o'rtasidagi o'yindir. Darslarda faol va interfaol o'rganish usullaridan foydalangan holda o'qituvchi talabalar tomonidan o'qilgan materiallar miqdorini 90 foizgacha oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi interfaol texnologiyalar va o'quv usullariga asosan qo'llaniladi. Maktabgacha tarbiyachi uchun o'yin - bu asosiy faoliyat va u orqali bolaning yoshida zarur bo'lgan hamma narsani o'rgatishingiz mumkin.

Foydalanilgan aadabiyotlar

1. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'l. D.Ro'zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. – T.: Nizomiy nomli TDPU, 2013.
2. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "Pedagogik faoliyat jarayonida bo'lajak pedagoglarni raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi 7.4* (2024): 305-312.
3. Xusniddin, Milinorov, and Mavlonova Malika. "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi 7.4* (2024): 296-304.
4. Милиноров, Хусниддин Хушматович, and П. М. Жалолова. "ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 3. No. 5. 2024.
5. Jalolova, P. M., and Yo D. Odilov. "Methods of atomic physics classes organization based on e-learning technologies." *SCIENCE AND WORLD* (2013): 20.
6. Shavkat, Khaydarov, and Khuzhaniyozov Bakhrom. "ON THE IMPORTANCE OF ETHNOPEDAGOGICAL TRADITIONS IN THE UZBEK PEOPLE." *Web of Teachers: Inderscience Research 2.5* (2024): 210-214.
7. Khaidarov, Sh. "MOTIVATION OF PEDAGOGICAL BACHELORATE GRADUATES FOR PROFESSIONAL TEACHING ACTIVITIES." *Science and innovation 2.B12* (2023): 892-895.
8. Хайдаров, Шавкат. "Роль этнопедагогики в узбекском народном традиции." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi 7.4* (2024): 286-291.
9. Милиноров, Хусниддин Хушматович, and Хайдаров, Шавкат. "ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 3. No. 5. 2024.
10. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "TALABALARDA MUAMMOLI TA'LIM JARAYONINI RIVOJLAHTIRISH TEXNOLOGIYASI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari 8.1* (2024): 163-170.
11. Ochilova, N., and Bahrom Xo'janiyozov. "TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI." *Results of National Scientific Research International Journal 1.7* (2022): 339-343.
12. HUMANIYOZEV, B. "ORGANIZATION OF THE FORMATION OF HISTORICAL THINKING OF SCHOOLCHILDREN IN AN EDUCATIONAL ORGANIZATION." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi 7.4* (2024): 292-295.
13. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "PEDAGOGIKANING INSON VA UNING SHAXSINI SHAKLLANTIRADIGAN ORNI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari 8.1* (2024): 145-151.

14. Jalolova, P. "USE OF ICT TOOLS TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF TEACHING PHYSICS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS." *Science and innovation* 2.B5 (2023): 393-401.
15. Jalolova, Pokiza, and Yorkin Odilov. "CALCULATION AND MODELING ENERGY LEVELS IN THE ATOM ON THE BASIS OF INFORMATION TECHNOLOGY." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 7.12 (2019).
16. Jalolova, Pokiza. "Theoretical-methodological aspects of quantum physics section in the credit module system." *Solid State Technology* 63.6 (2020): 152-158.
17. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "BOSHLANG 'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG 'OR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 8.1 (2024): 158-162.
18. Milinorov, X. X., and D. N. Eshmuratova. "THE ROLE OF UZBEK TRADITIONS, CEREMONIES AND CUSTOMS IN PERSONALITY DEVELOPMENT." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.5 (2024): 205-209.
19. Isakhodjayev, Kh, et al. "Cooling air in contact with natural sources of cold." *E3S Web of Conferences*. Vol. 383. EDP Sciences, 2023.
20. Лапп, Елена Александровна, Елена Викторовна Шипилова, and Акрам Рустамович Сохибов. "ПРОЕКТИРОВАНИЕ И СОПРОВОЖДЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МАРШРУТОВ ДЛЯ ШКОЛЬНИКОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ: РАБОЧАЯ ПРОГРАММА КУРСА." *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ*. 2021.